

YOSHLARDA SIYOSIY-HUQUQIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Matiyeva Yorqinoy Davronbekovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlarning siyosiy hamda huquqiy faolligini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati va bu sohada yurtimizda yuritilayotgan siyosatning tarixiy roli masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot, internet, demokratiya, jamiyat, huquq, hukumat, yoshlar.*

Аннотация: *В данной статье освещается значение средств массовой информации в развитии политико-правовой активности молодежи Республики Узбекистан и историческая роль политики нашей страны в этой сфере.*

Ключевые слова: *информация, Интернет, демократия, общество, закон, власть, молодежь.*

Abstract: *This article highlights the importance of mass media in the development of political and legal activity of young people in the Republic of Uzbekistan and the historical role of our country's policy in this field.*

Key words: *information, internet, democracy, society, law, government, youth.*

Mamlakatimizda so'ngi yillarda axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Internet tufayli yangiliklar yorug'lik tezligida butun dunyo bo'ylab sayohat qilishi, yolg'on, fitna nazariyalari, noto'g'ri ma'lumotlar ham shunday bo'lishi mumkin. Internetda yolg'on haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ba'zilar soxta yangiliklar balosiga qarshi kurashish uchun texnologiya qoidalariga e'tibor qaratsada, eng kuchli himoya bu mediasavodxonligi kuchli bo'lgan fuqarolarni shakllantirishdir³⁶.

Ommaviy axborot vositalari - axborotni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi vositalarga nisbatan ishlatuvchi tushuncha. Ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik

³⁶ Abdumadjid X. Talabalarda media savodxonlik va axborot madsaniyatini rivojlantirish omillari //Research and Publications. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 287-290.

tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot sohasini tartibga soluvchi va rivojlanishini belgilab beruvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, hayotga keng tadbiiq etildi. Shunga qaramay mazkur sohaga oid huquqiy-normativ hujjatlarga shiddatli rivojlanish jarayonida o'zgartirish va yoki qo'shimchalar kiritilishini zamon va davrning o'zi taqozo qilmoqda. Shuning sababdan ham mustaqillik davri tarixini tadqiq etuvchilar uchun mazkur jarayonlarni o'rganish va holisona baho berish muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillika erishgach, matbuot yangicha, umuminsoniy qarashlar asosida o'rganila boshladi. Qonun ommaviy axborot vositalarini erkin faoliyat yuritishlarini, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanishlarni kafolatlaydi. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida", "Reklama to'g'risida" "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi kabi qator qonunlar qabul qilindi³⁷.

Ommaviy axborot vositalari borasidagi siyosatga sovuqqonlik bilan yondashish mumkin bo'lmagan soha deb qarash mumkin. Chunki ular nafaqat yoshlar balki o'smirlar onggiga ham bir vaqtning o'zida ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smirlar teledasturlarining birinchi xususiyati shundaki, tasvir, montaj, musiqa usullaridan mahorat bilan foydalana olishi natijasida ko'rsatuvni tomosha qilgan yosh tomoshabinda katta ijobiy taassurot qolishiga erishish mumkin³⁸. Bu holat mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hisobga olining siyosat olib borildi.

Avvalo Ommaviy axborot vositalari yoshlar hayotidagi kata ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rishimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda media savodxonlik ko'nikmalari va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida

³⁷ Rasulov A. M. Мустақиллик йилларида оммавий ахборот воситалари эркинлиги //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 4-8.

³⁸ Рўзиев Ф, Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар.-Т.: Шарқ матбаа акциядорлик компанияси, 2013.

baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi³⁹.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalarni haqqoniy yoritish talab etiladi. Negaki, bordiyu berilayotgan xabarlar, ayniqsa xorijiy mamlakat xususiy teleradiokompaniyalari tomonidan uzatilayotgan noxolis ko'rsatuv va eshittirishlar fuqarolar siyosiy ongiga boshqacha ta'sir etishi mumkin.

Hayotiylik - bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga qo'yilayotgan asosiy talab. Berilayotgan axborotlarning asosan yutuqlarni ko'rsatish, maqtovlardan iborat bo'lishi targ'ibotga qanchalik foydali yoki zararli ekanini chamalab ko'rish lozim. Hayot bor ekan, muammolar, kamchiliklar, nuqsonlar bo'laverishi tabiiy. Bu - isbot talab qilmaydigan aksioma. Shunday ekan, muammolarning mavjudligiga fojea sifatida emas, odatdagi narsa deb qarashga o'rganish kerak. Ularning borligini ko'rib, o'zini ko'rmaganlikka olish bilan faqat zarar keltirishi mumkin. Demak, muammolarni o'z vaqtida tan olish, ularni hal qilishga kirishish lozim⁴⁰.

O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kafolatlari to'g'risida»gi Qonun loyihasi Prezident Farmoyishiga muvofiq 2012 yil to'rtinchi choragida Hukumatga kiritilgan⁴¹. Axborot sohasini isloh etish bo'yicha vazifa etib belgilangan chora-tadbirlarning asl mohiyati fuqarolik jamiyatini barpo etishda ommaviy axborot vositalarining mustaqil institut sifatida shakllanishini, siyosiy hokimiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda ochiqlikni hamda fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini to'liq ta'minlashdan iboratdir. Mustaqillik dastlabki kunlaridanoq ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongida siyosiy va huquqiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati to'g'ri anglandi. Ularning faoliyati qonun hujjatlari bilan tartibga solindi.

³⁹ Yunusov I. Y. Talabalarda mediasavodxonlikni kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 34. – №. 5. – С. 77-80.

⁴⁰ Расулов. А. Оммaвий axборот vositalarining jamiat a'zolariga fojiviy ta'siri // Scientific progress. Vol. 3. Issue 4. 2022. – P. 872.

⁴¹ Расулов А. М. Ўзбекистонда Оммaвий Ахборот Воситаларининг Фаолияти //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 804-809.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI;

1. Abdumadjid X. Talabalarda media savodxonlik va axborot madsaniyatini rivojlantirish omillari //Research and Publications. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 287-290.
2. Rasulov A. M. Мустақиллик йилларида оммавий ахборот воситалари эркинлиги //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 4-8.
3. Yunusov I. Y. Talabalarda mediasavodxonlikni kompetensiyalarni shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 34. – №. 5. – С. 77-80.
4. Расулов А. М. Ўзбекистонда Оммавий Ахборот Воситаларининг Фаолияти //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 804-809.
5. Расулов. А. Оммавий ахборот воситаларининг жамият аъзоларига ғоявий таъсири // Scientific progress. Vol. 3. Issue 4. 2022. – P. 872.
6. Рўзиев Ф, Жўраева Х. Тележурналистга тавсиялар.-Т.: Шарқ матбаа акциядорлик компанияси, 2013.